

## BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI

**Tursunova Malika Baxtiyor qizi**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lif fakulteti  
Boshlang'ich ta'lif pedagogikasi kafedrasи o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion ta'lif texnologiyalari hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish yo'llari haqida bayon etiladi.

**Kalit so'zlar:** innovatsion ta'lif texnologiyalari, zamonaviy axborot texnologiyalari, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari, kasbiy kompetensiya, pedagogik innovatsiyalar, kompetensiyaviy yondashuv.

Oliy ta'limda innovatsion faoliyatning sub'yekti o'qituvchi va uning shaxsiy imkoniyati hisoblanadi. Bunda o'qituvchi shaxsining ijtimoiy-madaniy, intellektual va axloqiy imkoniyatlari yuksak ahamiyatga molik bo'ladi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati voqelikni o'zgartirishga, uning muammolari va usullarini yechishni aniqlashga qaratilgandir. Talaba va o'qituvchi o'rtaqidagi muloqot namunasining o'zgarishi, innovatsion faoliyat shartlaridan biridir.

Yangi munosabatlar, an'analarda bo'lganidek, qistovlar, hukmga bo'ysunish kabi unsurlardan holi bo'ishi lozim. Ular tenglarning hamkorligi, o'zaro boshqarilishi, ozaro yordam shaklida qurilgan bo'lishi darkor. Ular munosabatlaridagi eng mihim xususiyat bu o'qituvchi va talabaning ijoddagi hamkorligidir.

Innovatsion faoliyat quyidagi asosiy funksiyalar bilan izohlanadi:

- ✓ kasbiy faoliyatning ongli tahlili
- ✓ me'yorlarga nisbtan tanidiy yondashuv;
- ✓ kasbiy yangiliklarga nisbatan shaylik
- ✓ dunyodagi ijodiy yaratuvchilik munosabatida bo'lish
- ✓ o'z immkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, o'z turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatda mujassam qilish.

Demak, o'qituvchi yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisi sifatida namoyon bo'ladi.

Hozirgi jamiyat, madaniyat va ta'lif tarqqiyoti sharoitida oqituvchi innovatsiya faoliyatiga bo'lgan zaruriyat quyidagilar bilan o'lchanadi:

- ijtimoiy -iqtisodiy yangilanish ta'lif tizimi, metodologiy va o'quv jarayoni texnologisining tubdan yangilashni talab qildi. Bunday sharoitda o'qituvchining innovatsiya faoliyati pedagogik yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish va foydalanishdan iborat bo'ladi.

- ta’lim mazmunini insonparvarlashtirish, doimo o‘qitishning yangi tashkiliy shakllarini, texnologiyalarini qidirishni taqazo qiladi.
- pedagogik yangilikni o‘zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o‘qituvchining munosabati xarakteri o‘zgarishi.

O‘qituvchining innovatsion faoliyati tahlili yangilik kiritishning samaradorligini belgilovchi muayyan me’yorlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday me’yorlarga-yangilik, maqbullik, yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsiyani ijodiy qo‘llash imkoniyatlari kiradi. O‘qituvchining innovatsion faoliyati o‘z ichiga yangilikni tahlil qilish va uga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish, ushbu rejani amalga oshirish va tahrir qilish, samaradorlikka baho berish kabilarni qamrab oladi.

Tursunova B.M. fikricha, oliy maktabdagi innovatsiya jarayonlari xarakteri kiritilgan yangiliklar xususiyalari, o‘qituvchilarining kabiyl imkoniyatlari, yangilik kiritish taashabbuskorlari va ishtirokchilarining innovatsion faoliyatlarini xususiyatlari bilan belgilanadi. innovatsion faoliyatda eng muhim masalalardan biri o‘qituvchi shaxsdir. O‘qituvchi novator sermahsul ijodiy shaxs bo‘lishi, kreativlikni, keng qamrovli qiziqish va mashg‘ullikni, seuvvchi ichki dunyosi boy, pedagogik yangiliklarga o‘ch bo‘lishi lozim.

O‘qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlaash ikki yo‘nalishda amalga oshirishi lozim.

- ✓ Yangilikni idrok qilishga innovatsion shaylikni shakllantirish;
- ✓ Yangilik harakat qila olishga o‘rgatish.

Innovatsion faoliyatni tashkil etishda talabalarning o‘quv-bilish faoliyati va uni boshqarish alohida ahamiyatga ega. innovatsiya jarayonlari, ularning funksiyalari, rivojlanish qonuniyatlar, mehanizmlari va uni amalga oshirish texnologiyalari, boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarining O‘rganish oliy maktab O‘quv jarayonini zamonaviy pedagogika hamda psixologiya fanlari yutuqlari asosida jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi.

Abduqodirov A.A. tomonidan olib borilgan tadqiqotlar tahlili ta’limda kompetensiyaviy yondashuv o‘quvchilar egallaydigan bilim, ko‘nikma va malakalarni ularning hayotiy faoliyatda amaliy qo‘llay olish layoqatini shakllantirish zarurligidan yuzaga kelganini ko‘rsatadi. Mazkur yondashuv insonning hayotiy faoliyatlar uchun zarur bo‘ladigan kompetensiyalarni shakllantirish uchun qulay ta’lim muhitini ta’minlashni nazarda tutadi. [59]

M. Jumaniyozovaning fikricha, o‘qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash muammosiga murojaat etish jamiyatda innovatsion jarayonlar dinamikasining o‘sib borishi natijasida vujudga keldi [30].

R. Jo‘rayev va X. Ibragimovlarning fikricha, «innovatsion faoliyat o‘qituvchining o‘z faoliyatidan qoniqmaslididan kelib chiqadi. U o‘qituvchi tomonidan u yoki bu pedagogik vazifani hal qilishda qandaydir to‘singga duch kelib, uni muvaffaqiyatli hal etishga intilish asosida yuzaga keladi».

Karlibayeva G.E. talqiniga ko‘ra, o‘qituvchilar kasbiy kompetentligini rivojlantirish maqsadida innovatsion jarayonlarni tashkil etish hamda ko‘zlangan natijalarga erishishda, eng avvalo, o‘qituvchi faoliyatidagi mayjud muammolarni o‘rganish va tahlil qilish, mayjud muammolarni bartaraf etishda bajarilishi zarur bo‘lgan vazifalarni, maqsadni aniqlash, shuningdek, o‘qituvchining imkoniyati va ehtiyojlaridan kelib chiqib innovatsion jarayonning mazmun, mohiyatini belgilashning sifati va bajarilishi samaradorligi rahbarlarning faoliyatiga qay darajada bog‘liq bo‘lsa, o‘qituvchilar kasbiy kompetentligini rivojlantirish yo‘nalishlarda belgilangan maqsadlarga ko‘ra, yuqori natijalarga erishish ularning innovatsion faoliyati hamda innovatsion jarayonlarga qiziqishlariga shu darajada bog‘liq bo‘ladi.

V.A.Slastenin o'qituvchining innovatsion faoliyatini tuzishda unga akmeologik jihatdan yondashadi. Akmeologiya (akme) – yunoncha «oliy nuqta», «o'tkir», «gullagan», «yetuk», «eng yaxshi davr» degan ma'nolarni bildiradi.

V.A.Slastenin akmeologiyaning yuksak professionalizmga, mutaxassisning uzoq ijodiy umr ko'rishiga olib keladigan sub'yektiv va ob'yektiv omillarini asoslab berdi. Ob'yektiv omillarga olingan ta'limning sifatini, sub'yektiv omillarga esa insonning iste'dodi va qobiliyatini, ishlab chiqarish vazifalarini samarali hal qila olishdagi ma'suliyatini, mutaxassislarga yondashuvini kiritadi.

N.S.Saydahmedov talqiniga ko'ra innovatsion yondashuv o'qituvchidan olgan bilim va ko'nikmalarini amaliyotga qo'llashginani emas, balki ularni doimiy takomillashtirishni talab etadi. Mazkur talab bilan bog'liqlikda o'z navbatida o'qitish metodlarini tanlash tizimi ham o'zgaradi. O'qitish metodlarini tanlash va amaliyotga qo'llash o'z navbatida ta'lim jarayonida qo'yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarni takomillashtirishni talab etadi.

Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish yo'llari, shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlari ishlab chiqilgan.

Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda tarbiya fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish usullari haqida fikr yuritilgan. Boshlang'ich ta'limning asosiy maqsadi, bugungi kun talabiga javob beradigan barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilgan ekan, aynipaytda bo'lajak o'qituvchilarga katta mas'uliyatni yuklaydi. Shu jihatdan ham bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining pedagogik faoliyat yuritishi davr talabiga javob bermog'i lozim. Shu jihatdan ham yosh avlodni barkamol qilib voyaga yetkazish uchun Respublikamizda ijtimoiy – tashkiliy, tarbiyaviy ishlar amalga oshirilmoqda. Barkamol avlodni tarbiyalash, ma'naviy, ma'rifiy, tashkiliy uslubiy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari bilan murakkab tarbiyaviy ishlar tizimi kundan-kunga takomillashib bormoqda.

O'qituvchining innovatsion faoliyati tahlili yangilik kiritishning samaradorligini belgilovchi muayyan me'yordan foydalanishni talab qiladi. Bunday me'yorlarga-yangilik, maqbullik, yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsiyani ijodiy qo'llash imkoniyatlari kiradi. O'qituvchining innovatsion faoliyati o'z ichiga yangilikni tahlil qilish va uga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish, ushbu rejani amalga oshirish va tahrir qilish,samaradorlikka baho berish kabilarni qamrab oladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Жўраев Р.Х., Ибрагимов Х.И. Педагогик жамоанинг инновацион фаолияти. // Халқ таълими. – Т.: 2004. -№2. – Б. 5.
2. Карлыбаева Г.Е. Инновацион таълим мухити шароитида бўлажак физика ўқитувчиларининг методикага оид компетентлигининг структуравий-функционал модели // Илим ҳам жәмийет, –Нөкис: 2018. –№2. –Б. 57–59.
3. Сайдаҳмедов Н.С. Педагогикада янгича фикрлаш. – Т.: «Истиқбол», 2002. –Б. 62.
4. Tursunova M.B. “Innovatsion ta’lim muhiti va uning paydo bo‘lishi” Respublika Ilmiy-amaliy konferensiya. Jizzax-2022.
5. Tursunova M.B. “Raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda innovatsion texnologiyalarni tadbiq etish”. TDPU ilmiy axborotnoma.
6. Muslimov N, Usmonboyeva M, Sayfurov D, To’rayev A- Innovatsion ta’lim texnologiyalari. T-201512-bet
7. Муслимов Н.А. ва б. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси. –Т.: Fan va texnologiya, 2013.– 128 б.]